

Qo'g'irchoq teatrida sahna nutqining o'ziga xos xususiyatlari

Bobirjon Islombek o'g'li Jabborov
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo'g'irchoq teatrida sahna nutqining xususiyatlari, ilmiy, amaliy, nazariy jihatlari, o'ziga xos jihatlari, drama, musiqali teatr va estrada aktyorlaridan farqlari haqida so'z boradi. Jismoniy material sifatida qo'g'irchoqboz tayyor asbobga, ya'ni qo'g'irchoqqa ega. Shunday qilib, aktyorning psixofizik apparati sahna tasvirini yaratadi. Mashqlar davomida ular mo'jizaviy jonlanish jarayonini amalga oshirib, o'z ovozlari orqali o'zgargan nutqqa ega bo'lishadi. Qo'g'irchoq teatri bo'limlarida sahna nutqini o'qitish tajribasi qo'g'irchoq teatring keng ijodiy tajribasi va amaliyotiga asoslanadi. Qo'g'irchoq teatri aktyorining dramatik teatri aktyoridan farqi shundaki, qo'g'irchoq teatrida barcha ijodiy jarayonlar qo'g'irchoq bilan bevosita bog'liq.

Kalit so'zlar: teatr, og'zaki san'at, qo'g'irchoq, ovoz, psixofizik apparat, rejissyor, aktyor, sahna, intonatsiya, tabiiy ovoz

Peculiarities of stage speech in puppet theater

Bobirjon Islombek o'g'li Jabborov
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: This article examines the features, scientific and practical, theoretical aspects, specific aspects of stage speech in puppet theater, as well as its differences from actors of dramatic, musical theater and variety. As a physical material, the puppeteer has a ready-made instrument, that is, a puppet. Thus, the psychophysical apparatus of the actor creates a stage image. During the exercises, they acquire transformed speech through their own voice, performing a wonderful process of revival. The experience of teaching stage speech in the departments of the puppet theater is based on the extensive creative experience and practice of the puppet theater. The difference between a puppet theater actor and a drama theater actor is that in a puppet theater, all creative processes are directly related to the puppet.

Keywords: theater, art of words, puppet, voice, psychophysical apparatus, director, actor, stage, intonation, natural voice

Hozirgi zamonaviy qo'g'irchoq teatri ko'p asrlik an'analar asosida jamlangan. E.S. Kalmanovskiy shunday deb yozgan edi "Qo'g'irchoq teatri aktyorlari deyarli hech

qachon o'zining kundalik tabiiy ovozida gapirmaydilar". Qolaversa mustahkam va rang-barang ovozni talab qiladi. Shuni qo'shimcha qilish kerakki, zamonaviy qo'girchoq teatrining nutq san'atida qadimgi qo'girchoq san'ati muhim rol o'ynaydi. Qo'girchoq teatri amaliyoti qo'girchoq aktyori uchun drama teatri aktyorining mahoratiga ya'ni kechinma san'atiga ega bo'lish zarurligini tasdiqladi. Shuning uchun ham qo'girchoq san'atining asosida K.S.Stanislavskiy maktabi yotadi. Biroq, qo'girchoq teatri san'atining o'ziga xos xususiyati tabiiy ravishda aktyorning psixotexnikasining ko'plab elementlari sabr va muayyan o'zgarishlarga duch kelishi kerakligiga olib keladi. Dramatik teatr aktyori o'z tanasining individual jismoniy va ruhiy materiallardan foydalangan holda sahna obrazini yaratadi. Qo'girchoq aktyori jismoniy material sifatida tayyor vositaga ega ya'ni qo'girchoqqa. Shunday qilib, aktyorning psixofizik apparati sahna obrazini yaratadi. Mashqlar jarayonida ular mo'jizakor jonlantirish jarayonini bajarish barobarida, o'zining ovoz orqali ularning transformatsiyalashtirilgan nutqini topadi.

Qo'girchoq teatri bo'limlarida sahna nutqini o'qitish tajribasi qo'girchoq teatrining keng ijodiy tajribasi va amaliyotiga asoslanadi. Qo'girchoq teatri aktyorining dramatik teatri aktyoridan farqi shundaki, qo'girchoq teatrida barcha ijodiy jarayonlar qo'girchoq bilan bevosita bog'liq. Qo'girchoq aktyori va rejissorlarining kasbiy ta'limi uzoq tarixga ega emas. Urf-odatlariga ham boy emas. Ushbu mutaxassisliklar uchun sahna nutqini o'qitish, o'rgatish haqida ham shunday deyish mumkin. Uzoq yillar davomida qo'girchoq teatrining bo'lajak aktyorlari va rejissorlarining sahna nutqini maxsus usullari haqida masala ko'tarilmagan. Shuni qiziqki, bugungi kunda turli mamlakatlarning teatrlarida siz qo'girchoq san'atida shakllangan ovozashtirish va boshqarishning deyarli barcha usullarini topishingiz mumkin. Jumladan: Italiyalik Pulchinelli, Fransuz Polshinel va Gignol, Ingliz Panch, Ispan Gratsiozo, (don Kistobel Pulchinelli), Nemis Gansvurt va Pikelxering, Avstriyalik Kasperle, Belgiyalik Voltier, Chex Kashparek, Turk Garagez, Fors Paxlavon Kachal va O'zbekistonda Kachal Polvon.

Albatta, bu zamonaviy qo'girchoq teatri faqat oldingi davrlarning teatr shakllaridan foydalanadi degani emas, aksincha, ayniqsa 20-asrning ikkinchi yarmida uslublar va texnologik tizimlarning tubdan o'zgarishi sodir bo'ldi. Ammo shunga qaramay, tajribalar, qoidalar tariqasida, asrlar davomida tanlangan va sayqallangan narsalarga asoslangan edi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'tmishda qo'girchoq aktyorining kasbiy tayyorgarligi rasmiy ravishda mavjud bo'lmagan bo'lsada, qo'girchoq truppalari va individual ustalar davrida o'rganish tizimi keng tarqalgan edi. Shuning uchun ham qo'girchoq aktyorlarining mahorati ancha yuqori bo'lgan.

Ilgarigi davrlarda qo'girchoq teatrlarida sapillardan foydalanilgan. Bu moslama metallardan, kumushdan yoki suyak plastinkasidan tayyorlangan. U tilning orqa tomoniga qo'yilgan. Ovozni tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirib yuborgan. Bu

bilan ovozning uzoqqa ham yetkazish imkoniyati yuqori bo'lgan. Badiiy yuqori, ushbu professional san'at turning muakkabligi aniq. Simli qo'g'irchoqlar shirma ortida joylashgan aktyorning holati uchun juda noqulay. Simli va qo'ldopli qo'g'irchoqlarda bellar ozgina orqaga bukilgan, bosh yuqoriga qaragan, qo'llarda esa qo'g'irchoqning og'irligi. Mana shunday noqulay sharoitda qo'g'irchoq aktyorlarining ovozi ham ishlash kerak. Bir vaqtning o'zida buncha jarayonni bajarish uchun ancha energiya sarflanadi. Bu yerda chuqur uslubiy muommolar yashiringan. E.V. Speranskiy shunday deb yozadi: aktyorning ovozi har qanday sharoitda ham tomoshabinga yetib borishi va qo'g'irchoq bilan birlashishi uchun nafaqat ovozning, balki sizning his-tuyg'ularingizni ham o'ziga xos yorqinligi bo'lishi kerak. Speranskiy ifodaning yorqinligiga qaratilgan jismoniy zo'riqish va psixologik harakatlarni, qo'shimcha harakat" va, materialga tuzatish" deb atadi. Aktyor spektaklning moddiy qismi, qo'g'irchoqning jonsiz tabiati va shirma orqali - tomoshabinga qalb, fikr, ovozi bilan kurashishi kerak. Shundagina tomoshabin qo'g'irchoqning tirik ekanligiga ishonadi.

Hozirgi kunga kelib, audio yozuvlar ya'ni fonogrammalar qo'g'irchoq teatriga kirib keldi. Bu albatta, ko'p jihatdan, ishlab chiqarish, texnik sharoitlar va aktyorning ovoz apparatiga haddan tashqari yuklanish tufayli yuzaga keldi. Ammo buning salbiy oqibatlarini ham o'ylash kerak. Sababi fonogrammada siz, har bir soniyalarni hisoblashni boshlaysiz, qadamlarni sanaysiz, fonogrammaga moslashasiz, so'ngra siz spektaklni yoddan bilasiz va oqibatda siz texnika haqida o'ylamaysiz. Bu yerda to'la-to'kis erkinlik boshlanadi. Improvizatsiya qilgingiz keladi. Ba'zi hollarda jonli plandagi aktyor va qo'g'irchoq qahramoni bilan diologga kirishganda, aktyorlardan ovozni bir-birlariga o'zaro uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bularning barchasi o'z nutqi va qo'g'irchoq ovozining o'rtasidagi chegarani mohirlik bilan topishni shuningdek, teatr maktabida sahna nutqini o'qitishning bir qator o'ziga xos uslubiy muommolarini keltirib chiqaradi.

Rejissorning rejasiga ko'ra, sahnada qo'g'irchoqni to'liq jonlantirish holatlariga e'tibor qaratamiz. Bu turli yo'llar bilan sodir bo'ladi:

- Qo'g'irchoqni boshqaruvchi aktyor gapirtiradi, aktyor tomoshabinga ko'rinadigan yoki yashirin bo'lishi mumkin.

- Qo'g'irchoq boshqaruviga aloqasi bo'lmagan aktyor ovoz beradi.

- Aktyor qo'g'irchoqni ochiq usulda gapirtiradi va o'zi ham u bilan bevosita muloqqotga kirishadi. Bunday vaziyatlarda aktyor qo'g'irchoqni gapirtirayotganda o'zining artikulyatsiyasini yashiradi va tomoshabinlarda qo'g'irchoq o'zi gaplashayotgani haqida tasavvur uyg'otadi.

- Aktyorning nutqi turli yo'llar bilan yozib olinadi.

Ammo sanab o'tilgan usullardan qaysi biri rejissor va aktyorlar tomonidan tanlangan bo'lsa, spektakl doirasida qo'g'irchoqlarga ovoz berish muayyan qoidalarga bo'ysunishi kerak. Masalan:

1. Spektakl davomida qo'g'irchoqlarning ovozi doimiy bir xilda bo'lishi kerak. Ya'ni bir xil individual xususiyatga ega, tomoshabinlar tomonidan tan olinishi.

2. Qo'g'irchoq aktyori shirma ortida ishlaganda, ovozini to'g'ri yo'naltira olishi. Tomoshabinga tushunarli holatda yetkazilishi, birinchi plandan ikki-uchinchi planga o'tayotganda ovozni yuqorilatish yoki pasaytirish jarayonini to'g'ri taqsimlash spektaklda turli xil qo'g'irchoqlarning topilgan nutqi, turli xil individual xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Qahramonlar bir-birlari bilan suhbatlashganda tomoshabinlar osongina ajratib olishlari kerak.

3. Spektakldagi qahramonlarning nutqi turli xil individual xususiyatga ega bo'lmog'i lozim, tomoshabin osongina bir-biridan ajratib olishi kerak.

Qo'g'irchoq aktyorining o'ziga xos xususiyatlar va ish uslublari dramatik aktyorning ish jarayonidan tubdan farq qiladi va shuning uchun bir qator ko'nikmalarni talab qiladi. Ularsiz teatrda professional ishlab bo'lmaydi.

*Birinchi*dan, qo'g'irchoq teatri aktyorining ijodiy ishining badiiy mahsuli sahna qiyofasini yaratish bilan bog'liq, ammo qo'g'irchoq vositasi orqali. Spektakldagi obrazning og'zaki va nutqiy ifodasi, albatta, rassom va qo'g'irchoq texnologiyasi tomonidan yaratilgan xarakterning tasviriga, ya'ni qo'g'irchoqqa mos kelishi kerak. Bu esa aktyordan nutqni ifoda etishning maxsus ko'nikmalarni talab etadi. aktyor o'z rolini va psixofizik apparatini ma'lum bir vositaga - qo'g'irchoqqa bo'sundirishi kerak. Qo'g'irchoq teatri aktyori qo'g'irchoqqa beriladigan ko'nikmalarni yetkazish uchun nafas olish, ovoz berish, nutqni diksiya, orfoepik va intonatsion-mantiqiy tarzda tuzish qobiliyatini ham o'zlashtirishi kerak. Shubhasiz, bu butun badiiy va nutq amaliyotiga tuzatishlar kiritadi. Qo'g'irchoq aktyori o'z artikulyatsiyasini va shunga mos diksiyasini - og'iz shakliga, lablar tuzilishiga va ayniqsa qo'g'irchoqning artikulyatsiyasiga bo'ysunishi kerak.

*Ikkinchi*dan, qo'g'irchoq aktyori berilgan qahramonning ichki dunyosini bir zumda anglay olishi kerak. U intonatsion - melodik harakatchanlik va ekspressivlikni yo'qotmasdan, ovoz balandligi diapazonning yuqori yoki pastki qismidan foydalanishi, registrlarni, tovush tembrini o'zgartirishi kerak.

*Uchinchi*dan, shirma va boshqa to'siqlarning mavjudligi (shirmaning yumshoq matolari, ochiq usulda boshqariladigan kata qo'g'irchoqlar va boshqalar) qo'g'irchoq teatriga xos bo'lgan professional ovoqli nutqni talab qiladi. Ma'lumki, qo'g'irchoq aktyori doimiy ravishda nafas olish va harakatlanish uchun tanaga noqulay holatlarda ishlaydi (og'ir qo'g'irchoqni boshidan yuqoriga ko'tarib, planshet qo'g'irchoq'ida egilib) bu albatta tinimsiz mehnatni talab qiladi.

*To'rtinchi*dan, qo'g'irchoq teatri aktyorni o'ziga xos xususiyatlarga ega spektakl bog'laydi. Qo'g'irchoq teatrining repertuariga nazar tashlasak, spektakllarning qahramonlari aksariyati, ertak qahramonlar, hayvonlar. Ularning ichki dunyosini yaratish, ovoqli nutq o'zgarishi, hayvonlar, qushlar va hasharotlarning ovozlari taqlid

qila olish qobiliyatini talab qiladi. Bu qo'g'irchoq teatri aktyorida maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan sahna nutqining eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Qo'g'irchoq aktyorining ovozli nutq qobiliyatlari dramatik teatrining ishchi dasturida aks ettirilmagan. Qabul jarayonlaridagi eng asosiy e'tiborga olinadigan jihat shundaki, abityurentlarda ovoz va nutqning organikligi, qo'g'irchoqqa bo'lgan munosabat. Buning uchun abityurent imtihon stolidagi birorta qo'g'irchoqni qo'liga oladi va o'zi tayyorlab kelgan asarlarini ijro qilib beradi. Afsuski, ko'pincha chiroyli tembrli ovozlar ham qo'g'irchoqni tashqi ko'rinishi talab qiladigan ekspressiv o'zgarishlarga javob bera olmasliklari ma'lum bo'ladi. Buni to'g'ri bajarish, abityurentning ijodiy tasavvurining ichki sohasi bilan bog'liq. Shu bilan birga, ovoz bilan nutq, o'z-o'zidan, sof shaklda ifodali taassurot qoldirmaydi. Bo'ri, tulki va yalmog'iz kampirni ovozlashtirganda ohangdor, intonatsion modulyatsiyalar bilan boyitiladi. Abityurentlar talabalikka qabul qilinganlaridan song, o'qituvchining asosiy vazifasi, talabaning nutq va ovozida chidamlilik, moslashuvchanlik fazilatlarini rivojlantirishga yordam berish. Uning tabiiy individual ovozini saqlab qolgan holda. Qo'g'irchoq aktyori uchun yana muhim vazifa uning nutq apparati va qo'l harakatlarining uyg'unlikda ishini ta'minlashdir. S.K. Jukovning so'zlariga ko'ra, aktyor ichki his-tuygularini qo'g'irchoqqa sehrli qo'llari orqali o'tkazadi. Qo'llar insonning hissiy holatidagi o'zgarishlarga turlicha javob beradi.

E.V.Speranskiy ta'kidlaganidek, barcha ichki temperament, aktyorning fikrlari qo'g'irchoqni boshqarayotgan qo'llar orqali o'tadi. Inson nutqi qo'llar bilan bog'liq. Avvalo, qo'l harakatlari insonlar oddiy kundalik hayotda gapirganimizda ham, bevosita imo-ishoralar orqali gaplashiladi. Hattoki yodingizda bo'lsa xalqona odatlar bor, masalan; siz boshqa millat tilini bilmasangiz qo'l harakatlari orqali tushuntiramiz. Qo'g'irchoq teatrida hamma narsa boshqacha. Aktyorning qo'llari qo'g'irchoqni ushlagan holatda, ichki mexanikasini harakatga keltiradi. Doimiy ravishda o'ziga xos ko'plab harakatlarni amalga oshiradi. Qo'g'irchoqni tepada ushlab turish, shirmada me'yoriy darajasiga rioya qilinishini kuzatish, qo'g'irchoqni havoda muallaq harakatlantirish, iplarini boshqarish - muhim xususiyatlaridan biridir. Qo'l bilan ishlashning keyingi bosqichi - iboralar bilan artikulyatsiya mashqini bajarish. Bunda aktyorlar xalq maqollari va tez aytishlaridan foydalangan holda artikulyatsion mashqlar bajariladi.

Qo'g'irchoq spektakllarida gaplashuvchi qo'g'irchoqlar paydo bo'la boshlagan zahoti aktyorlar ovozini ularga moslashtirishi muammosi paydo bo'ldi. Qo'g'irchoq teatri aktyorlarida ovoz o'zgartishi imkoniyati mukammal darajada bo'lmog'i lozim. Har xil yoshdagi personajlar, turli harakterga ega bo'lgan hayvonlar obrazi, shuningdek, turli xil predmetlar shular jumlasidan. Yana bir murakkab jihat shundaki, mana shu ovoz o'zgargan holatda ham aktyorlar boshqarilayotgan obraz va personajlar

tilidan qo'shiq kuylashiga ham to'g'ri keladi. Bu aktyorlardan juda katta mahorat va mehnat talab qiladi. Dramatik teatri aktyorlari sahnada rol ijro etayotganlarida partnyor bilan o'zaro mezansahnani o'zlari eslab shu mezansahna orqali rol ijro etishlari kerak bo'ladi. Qo'g'richoq teatri aktyorlari esa nafaqat o'zi partnyori bilan qo'lidagi qo'g'irchoq va partnyorining qo'lidagi qo'g'irchoq o'rtasidagi mezansahnani ham inobatga olgan holda rol ijro etishlari kerak bo'ladi. Qolaversa, qo'g'irchoq teatri sahnasida dekoratsiyalar teatr texnikasidan kelib chiqqan holda osma, ya'ni tepadan tushadigan yoki ustunlar ham bo'ladi, aktyor rol ijro etayotganda diqqatini yo'qotsa ustunlarga urilib sahnadagi dekoratsiyani qimirlatib yuborishi mumkin bu esa o'z navbatida teatr qonun-qoidasiga zid. Bularning barchasi qo'g'irchoq teatri aktyoridan dramatik teatri aktyorlaridan-da ko'proq diqqat va e'tibor talab qiladi. Sahna nutqi - talabalarning nutqi, talaffuzi, artikulyatsiya, diksiya, nafas olish va ovoz jarangdorligini, yani aktyorning sahnaviy ishchi ovozini mustahkamlashda va yuzaga chiqarishda eng muhim vositadir. "Sahna nutqi" darsligi teatr san'atida, "Aktyorlik mahorati" fanining yetakchi ifoda vositasi sanaladi. Bo'lajak aktyorlarni tarbiyalaydi, katta sahnaga yo'llanma beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кириллова Е.И., Латишева Н.А. Сценическое речь в кукольном театре. Санкт- Петербург.: 2014
2. А. Nosirova "Sahna nutqi" darsligi. "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti. T-2013 yil
3. Xolikulova G. Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. -Toshkent. 2015 yil.
4. Xoliqulova G. Sahna nutqi (tarixiy dramalar misolida) -Toshkent: TDSI, 2007 yil.
5. Xoliqulova G. Sahna nutqi mahoratini egallashda uslub va vositalar. - Toshkent: UzDSMI. 2008 yil.
6. Xoliqulova G. Oliy ta'lim muassasasi pedagog-rahbarlari kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari. - Toshkent: "Donishmand ziyosi" 2023 yil.
7. Xoliqulova G. Sahna nutqi fanini o'qitish metodikasi. - Toshkent: "Donishmand ziyosi" 2023 yil.
8. Г.Е. Халикулова. Современный руководитель озабочен повышением профессиональной речи женщины. "Женщина - расцвет духовности" ЖизПи., 4-я Республиканская научно-практическая конференция...
9. Г.Е. Халикулова. Роль искусства в развитии страны, процветании народа и воспитании зрелого поколения. «Подготовка образованного и интеллигентного зрелого поколения» прошла в Ташкенте

10. Г.Е. Халикулова, Шодиев Х.Х. Повышение качества подготовки кадров и развитие отрасли в Государственном художественном институте Узбекистана. Проблемы создания образа героя времени в искусстве и культуре Узбекистана...
11. Г.Е. Халикулова. Духовная зрелость является обязательным требованием. ЖизПИ, сборник, стр. 363
12. Г.Е. Халикулова. Мастер деликатных слов. Статья к монографии «Мухсин Гамидов (Мастер художественного слова)» УзГСИ, стр. 8
13. Г.Е. Халикулова. Искусство на пути к развитию. Калдиргоч, Ташкент
14. Г.Е. Халикулова. Вопросы повышения активности молодежи в музыкальном исполнительстве и ее развития. Ташкентский ТДМИ, (Топлам)
15. Г.Е. Халикулова. Личные комментарии о современном театре. Калдиргоч, г. Ташкент, стр. 2
16. Г.Е. Халикулова. Сцена - историческая сцена. Театр, Ташкент, стр. 20-21
17. Г.Е. Халикулова. Поэзия Навои в речи актеров. Театральная, 10-11
18. Г.Е. Халикулова. Маннон Уйгур - выдающийся режиссер узбекского театра и мастер сценической речи. Институт литературы и искусства, Алматы, 59-60
19. Г.Е. Халикулова. Сценическая речь и язык. Мулагот, Ташкент, 35
20. Г.Е. Халикулова. Сцена актера пуста. Театр, Ташкент, стр. 22-23
21. Г.Е. Халикулова. Преподавание воспитательного процесса по укреплению не сильных педагогов студентов - будущих педагогов. наука и образование 3 (4), 484-491
22. Г.Е. Халикулова. Спецновелла Ойбекнинг "Навои". наука и образование 3 (4), 300-307
23. Г.Е. Халикулова. Особенность поздравительной речи. наука и образование 3 (4), 769-776
24. Г.Е. Халикулова. Язык и стиль оммабопа. наука и образование 3 (4), 759-765
25. Г.Е. Халикулова. Речь Мирзо Улугбека в спектакле. наука и образование 3 (4), 353-358
26. Г.Е. Халикулова. Улучшить разговорные навыки женщин-ученых и руководителей. наука и образование 3 (4), 343-353
27. Г.Е. Халикулова. Алишер Навои драмаси олтин мерос. наука и образование 3 (4), 334-343
28. Г.Е. Халикулова. Ёш навкирон Навои сиймоси актерлар назарида. наука и образование 3 (4), 328-334
29. Г.Е. Халикулова. Интерпретация образа Мирзо Улугбеком - сцена школьной речи. наука и образование 3 (4), 317-328

30. Г.Е. Халикулова. Описание Алишером Навои тона и речи образа. наука и образование 3 (4), 307-312